Tadqiqot.uz

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 10 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 10

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 10

ТОШКЕНТ-2026

ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ | LOOK TO THE PAST
№10 (2026) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2026-10

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик, Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адҳам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc), Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc) Шаҳрисабз далат педагогика институти

Ғоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қарши давлат техника университети

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Қарши давлат университети

Маҳкамова Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc), Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc), Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc), Доғистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогока университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент, Азербайджон давлат иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Гулистон давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент, Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Наманган давлат университети

Хакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор, Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор, Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Жиззах давлат педагогика университети

Юсупов Ахмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти Urganch davlat universiteti

Тиллахжаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робиддинович
тарих фанлари номзоди, доцент, Наманган давлат университети

Тўхтабаев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти Ўзбекистон Миллий университети

Хасанова Нодира Ибрагимовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти, Денов тадбиркорлик ва педагогика институти

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti

Абдуносирова Озодахон Ботиржон қизи
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Фарғона давлат университети

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Миллий университети

Page Maker | Верстка | Са ,ифаловчи: Xurshid Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Laziz Alimardonov
YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA MA’NAVIY TEXNOLOGIYALARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI……5

2. Doniyor Jumaniyozov
XIV–XV ASRLARDA XORAZMNING SAVDO TIZIMIDAGI O‘RNI: SHAHARLAR, KARVON YO‘LLARI VA NUMIZMATIK MANBALAR TAHLILI……11

3. Nilufar Djurayeva
O‘ZBEKISTONDA SOVET DAVRI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLASHUVIGA DOIR DAVLAT SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA QIYOSIY TAHLIL……17

4. Baxtiyor Mirkomilov
BADIIY QADRIYATLAR – MILLIY BOYLIK VA JAHON DURDONALARI SIFATIDA……30

5. Murod Raxmatov
AHMAD ZAKI VALIDIY TO‘G‘ONNING XORIJDAGI ILMIY FAOLIYATI……39

6. Nilufar Raxmatova
GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLARNI MILLIY G‘OYA, MA’NAVIYAT VA TARIXIY MEROS AN’ANASIDA TARBIYALASH TAMOYILLARI……46

7. Raxmatjon Saotboyev
XVIII–XX ASR BOSHLARIDA MARKAZIY OSIYO XONLIKLARINING SIYOSIY - BOSHQARUV TIZIMI VA TASHQI SIYOSIY OMILLAR TA’SIRIDAGI O‘ZGARISHLAR…53

8. Ikromjon Umarov
XX ASR BIRINCHI CHORAGIDA SURXON-SHEROBOD VOHASIDA SUG‘ORISH INSHOOTLARI VA SUVDAN FOYDALANISHNING AN’ANAVIY SHAKLLARI……..58

9. Ra’no Xatamova
O‘ZBEKISTONDA XIX-XXI ASR GILAMDO‘ZLIK TARIXINING MANBASHUNOSLIGI…65

10. Raxim Xudoyberdiyev
TERMIZ VA CHAG‘ONIYON HUDUDLARIDA SIRLANGAN KERAMIKANING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI……70

11. Муродилла Ҳайдаров
ОКТЯБР ТЎНТАРИШИ: БОЛЬШЕВИКЛАРНИНГ СОЦИАЛ ТАЖРИБАСИ ВА ҲАРАКАТЛАНТИРУВЧИ КУЧЛАР НИСБАТИ……76

12. Озоджон Қувондиқов
ЎЗБЕКИСТОН ВА ГЕРМАНИЯ ЎРТАСИДАГИ ХАЛҚ ДИПЛОМАТИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КОНРАД АДЕНАУЭР ЖАМҒАРМАСИНИНГ ЎРНИ……85

JOURNAL OF LOOK TO THE PAST
ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ISSN: 2181-9599
www.tadqiqot.uz

Laziz Alimardonovich Alimardonov,
Eurasian Multidisciplinary University katta o‘qituvchisi

YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA MA’NAVIY TEXNOLOGIYALARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

For citation: Laziz A.Alimardonov. PRIORITY DIRECTIONS FOR IMPROVING SPIRITUAL TECHNOLOGIES IN ENSURING THE INFORMATION SECURITY OF YOUTH. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 10.

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.23674218

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada globallashuv va shiddatli axborotlashuv jarayonlari sharoitida yoshlarning axborot xavfsizligini ta’minlashning nazariy-metodologik asoslari va ma’naviy texnologiyalarni takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Zamonaviy axborot xurujlari, internet muhitidagi yot g‘oyalar hamda ma’naviy-axloqiy tahdidlarning yoshlar ongiga ta’sirini yumshatish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, yoshlarda "ma’naviy immunitet"ni shakllantirish, milliy qadriyatlar va zamonaviy texnologik yondashuvlarni integratsiyalashgan holda axborot xavfsizligini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Axborot xavfsizligi, yoshlar, ma’naviy texnologiyalar, globallashuv, ma’naviy immunitet, axborot madaniyati, tahdidlar, ustuvor yo‘nalishlar.

Лазиз Алимардонович Алимардонов,
старший преподаватель Евразийского
междисциплинарного университета

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДУХОВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ МОЛОДЁЖИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуются теоретико-методологические основы обеспечения информационной безопасности молодёжи и вопросы совершенствования духовных технологий в условиях глобализации и бурных информационных процессов. Проанализированы механизмы смягчения воздействия современных информационных атак, чуждых идей в интернет-пространстве и духовно-нравственных угроз на сознание молодёжи. Также разработаны научно-практические предложения и рекомендации по формированию «духовного иммунитета» у подрастающего поколения и определению приоритетных направлений обеспечения информационной безопасности на основе интеграции национальных ценностей и современных технологических подходов.

Ключевые слова: информационная безопасность, молодёжь, духовные технологии, глобализация, духовный иммунитет, информационная культура, угрозы, приоритетные направления.

Laziz A.Alimardonov,
Senior Lecturer, Eurasian Multidisciplinary University

PRIORITY DIRECTIONS FOR IMPROVING SPIRITUAL TECHNOLOGIES IN ENSURING THE INFORMATION SECURITY OF YOUTH

ABSTRACT

This article examines the theoretical and methodological foundations of ensuring the information security of youth and the issues of improving spiritual technologies in the context of globalization and rapid information processes. The mechanisms for mitigating the impact of modern information attacks, alien ideas in the internet environment, and spiritual-moral threats on the consciousness of young people are analyzed. Furthermore, scientific and practical proposals and recommendations have been developed to form "spiritual immunity" among the younger generation and to identify priority directions for ensuring information security based on the integration of national values and modern technological approaches.

Index Terms: Information security, youth, spiritual technologies, globalization, spiritual immunity, information culture, threats, priority directions.

Mavzuning dolzarbligi:

Hozirgi kunda axborot jamiyatining jadal rivojlanishi va internet tarmoqlarining keng o‘rnashuvi yoshlar ongiga ta’sir ko‘rsatishning yangi, murakkab shakllarini yuzaga keltirmoqda. Axborot oqimining nazoratsiz kengayishi, milliy o‘zlikka yot bo‘lgan g‘oyalar, zo‘ravonlik va ekstremistik kontentning erkin tarqalishi yosh avlodning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashiga jiddiy xavf solmoqda. An'anaviy tarbiya usullarining zamonaviy virtual muhit tezligiga har doim ham ulgurmayotgani ma’naviy texnologiyalarni tubdan takomillashtirishni talab etadi. Shu bois, yoshlarning axborot xavfsizligini ta'minlash va ularda immunitetni kuchaytirish davlat va jamiyat siyosatining eng ustuvor strategik vazifalaridan biri hisoblanadi.

Metodlar:

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish, sotsiologik kuzatuv hamda empirik tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, axborot xavfsizligini ta'minlashda falsafiy-aksiologik va metodologik tamoyillarga tayanilib, globallashuv sharoitida yoshlarning xulq-atvori va ongidagi o‘zgarishlarni prognoz qilishga qaratilgan kompleks yondashuvlar qo‘llanildi.

Tadqiqot natijalari:

Tadqiqotda global axborot makonida yoshlarning axborot xavfsizligiga ta’sir etuvchi tashqi va ichki omillar hamda mamlakatimizda mazkur sohada amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilindi. Tahlillar natijasida axborot xavfsizligini ta’minlash sohasida huquqiy, tashkiliy va ma’naviy asoslar shakllanganligi aniqlandi. Biroq raqamli sivilizatsiya sharoitida mazkur tizimni yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Bizning fikrimizcha, XXI asrda axborot xavfsizligini ta’minlash sohasidagi asosiy vazifa yangi taqiqlar joriy etish emas, balki insonning axborot muhitida mustaqil, ongli va mas’uliyatli harakat qilish qobiliyatini shakllantirishdan iborat bo‘lishi lozim. Bu vazifani amalga oshirish esa ma’naviy texnologiyalarni zamonaviy talablar asosida qayta tashkil etishni taqozo etadi.

Shu munosabat bilan tadqiqotda ma’naviy texnologiyalarni takomillashtirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlari asoslantirildi.

Birinchi yo‘nalish - profilaktikadan proaktiv yondashuvga o‘tish. Amaldagi ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimida ko‘p hollarda muayyan muammo yuzaga kelgandan keyin chora ko‘rishga ustuvor ahamiyat beriladi. Masalan, salbiy axborot tarqalgandan keyin tushuntirish ishlari tashkil

etiladi, destruktiv g‘oyalar ta’siri kuchaygandan keyin profilaktik tadbirlar o‘tkaziladi. Bizning fikrimizcha, mazkur yondashuv raqamli muhit tezligiga mos kelmaydi.

Shu sababli ma’naviy texnologiyalar profilaktika modeli emas, balki proaktiv model asosida qurilishi lozim. Buning mazmuni shundan iboratki, insonda axborot tahdidi paydo bo‘lishidan oldin tanqidiy fikrlash, axborot madaniyati va ma’naviy immunitet shakllantiriladi. Natijada tashqi ta’sir paydo bo‘lganda inson allaqachon ichki himoya mexanizmiga ega bo‘ladi.

Ikkinchi yo‘nalish - ma’ruzadan interaktiv muloqotga o‘tish. Tahlillarimizning ko‘rsatishicha, an’anaviy ma’naviy-ma’rifiy ishlar asosan bir tomonlama axborot uzatish shaklida tashkil etiladi. Bu usul ma’lum davrda samarali bo‘lgan bo‘lsa-da, raqamli avlod uchun yetarli ta’sir kuchiga ega emas. Bizning fikrimizcha, zamonaviy yoshlar axborotni eshitishdan ko‘ra muhokama qilish, ishtirok etish va mustaqil xulosa chiqarish orqali yaxshiroq qabul qiladi.

Shuning uchun ma’naviy texnologiyalar interaktiv muhokama, keys-tahlil, simulyatsiya, raqamli platformalar, debat va muammoli vaziyatlar yechimiga asoslangan usullarga tayanishi lozim.

Uchinchi yo‘nalish - axborotni cheklashdan tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga o‘tish. Axborot oqimlari cheksiz bo‘lgan sharoitda ularning barchasini nazorat qilish amalda mumkin emas. Bizning fikrimizcha, axborot xavfsizligini ta’minlashning asosiy vazifasi axborotni cheklash emas, balki insonda uni mustaqil baholash qobiliyatini shakllantirish hisoblanadi.

Bu yerda tanqidiy fikrlash ma’naviy texnologiyalarning markaziy elementi sifatida qaraladi. Chunki tanqidiy fikrlash shakllangan inson har qanday axborotni qabul qilishdan avval uning manbasini, maqsadini, haqqoniyligini va ehtimoliy oqibatlarini baholaydi. Shu jihatdan tanqidiy fikrlash axborot xavfsizligining muhim ichki mexanizmi hisoblanadi.

To‘rtinchi yo‘nalish - targ‘ibotdan shaxsiy namunaga o‘tish. Biz mazkur tadqiqot davomida quyidagi ijtimoiy-falsafiy qonuniyatni ilgari surishni lozim deb topdik:

Inson eshitganidan ko‘ra ko‘rganiga, ko‘rganidan ko‘ra esa his qilganiga ko‘proq ishonadi. Shu sababli ma’naviy texnologiyalarning asosiy sub’ekti hisoblangan ota-ona, o‘qituvchi, rahbar, ziyoli va jamoatchilik vakillari avvalo o‘z faoliyati bilan namuna bo‘lishi lozim. Shaxsiy namuna mavjud bo‘lmagan joyda ma’naviy ta’sirning samaradorligi pasayadi. Bu qonuniyat mazkur dissertatsiyada ma’naviy texnologiyalarning asosiy prinsiplaridan biri sifatida asoslantiriladi.

Beshinchi yo‘nalish - yoshlardan butun jamiyatga o‘tish. Mavjud dasturlarning aksariyati asosan yoshlarga qaratilgan. Bizning fikrimizcha, raqamli muhitda axborot tahdidlari butun jamiyatga bir xil ta’sir ko‘rsatadi. Agar kattalarning axborot madaniyati past bo‘lsa, ular yoshlarga ijobiy namuna bo‘la olmaydi. Shu bois ma’naviy texnologiyalarning ta’sir doirasi butun jamiyatni qamrab olishi lozim. Bu yondashuv mazkur tadqiqotning muhim konseptual g‘oyalaridan biri hisoblanadi.

Oltinchi yo‘nalish - raqamli platformalarni ma’naviy texnologiya vositasiga aylantirish. Tadqiqotning eng muhim xulosalaridan biri shundan iboratki, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarni faqat tahdid manbai sifatida baholash ilmiy jihatdan to‘liq asosli emas. Bizning fikrimizcha, mazkur platformalarning o‘zi emas, ulardan qanday maqsadda foydalanish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shu munosabat bilan Telegram, YouTube, Instagram, Facebook va boshqa platformalar milliy ma’naviy kontent, mediasavodxonlik, kitobxonlik, huquqiy madaniyat va fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ma’naviy texnologiya vositalariga aylantirilishi lozim.

Bu yondashuv raqamli muhitni inkor etmaydi, aksincha undan ma’naviy taraqqiyot manbai sifatida foydalanishni nazarda tutadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi muhim ilmiy xulosa ilgari suriladi:

Axborot xavfsizligini ta’minlashning kelajagi axborotni nazorat qilishda emas, balki insonni o‘z ongi va axborot tanlovini mustaqil boshqara oladigan darajaga yetkazuvchi ma’naviy texnologiyalarni yaratishdadir.

Shu munosabat bilan mazkur dissertatsiyada ma’naviy texnologiyalarning yangi avlod modeli taklif etiladi. Uning asosiy xususiyati insonni tashqi axborotdan ajratish emas, balki uni axborot muhitida ongli yashashga tayyorlashdan iborat.

Ushbu paragraf bo‘yicha umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, olib borilgan ijtimoiy-falsafiy tahlillar raqamli sivilizatsiya sharoitida ma’naviy texnologiyalarni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash imkonini berdi. Ular qatoriga profilaktikadan proaktiv yondashuvga o‘tish, ma’ruzadan interaktiv muloqotga o‘tish, axborotni cheklashdan tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga o‘tish, shaxsiy namuna prinsipini ustuvorlashtirish, butun jamiyatni qamrab olish hamda raqamli platformalardan ma’naviy taraqqiyot vositasi sifatida foydalanish kiradi. Mazkur xulosalar III bobda ishlab chiqiladigan «Integrativ ma’naviy texnologiyalar mexanizmi»ning nazariy va amaliy asosini tashkil etadi.

Yoshlarning axborot xavfsizligini ta’minlashda ma’naviy texnologiyalarni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasi. Axborotlashgan jamiyat sharoitida shaxs ma’naviyatini muhofaza qilish masalasi tobora murakkab ijtimoiy jarayonga aylanib bormoqda. Raqamli kommunikatsiyalar, sun’iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar va global media makoni insonning axborot qabul qilish, fikr yuritish va qaror qabul qilish jarayonlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda axborot xavfsizligini ta’minlash faqat texnik yoki huquqiy chora-tadbirlar bilan cheklanishi mumkin emas.

Tadqiqot davomida o‘tkazilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mamlakatimizda mazkur sohada huquqiy, tashkiliy va ma’naviy asoslar shakllangan bo‘lsa-da, ularni yagona tizim sifatida integratsiya qiluvchi konseptual yondashuvni takomillashtirish zarur. Bizning fikrimizcha, bugungi kunda axborot xavfsizligini ta’minlashning asosiy vazifasi insonni axborotdan izolyatsiya qilish emas, balki uni axborot muhitida mustaqil yashashga tayyorlashdan iborat.

Shu munosabat bilan tadqiqotda "Integrativ ma’naviy texnologiyalar konsepsiyasi" taklif etiladi. Mazkur konsepsiyaning asosiy g‘oyasi quyidagi qonuniyatga asoslanadi:

Axborot xavfsizligi tashqi cheklovlar natijasi emas, balki insonning ichki ma’naviy barqarorligi mahsulidir.

Ushbu qonuniyat tadqiqotning butun nazariy asosini tashkil etadi.

Konsepsiyaning birinchi prinsipi - inson markaziy qadriyat sifatida qaraladi. Axborot xavfsizligini ta’minlashning barcha chora-tadbirlari inson manfaatlari, erkin fikrlash huquqi va ma’naviy kamolotini ta’minlashga xizmat qilishi lozim.

Ikkinchi prinsip – uzluksizlik. Ma’naviy texnologiya bir martalik tadbir emas. U inson hayotining barcha bosqichlarida:

oilada;
maktabda;
oliy ta’limda;
mehnat jamoasida;
mahallada;
butun hayoti davomida uzluksiz amal qilishi lozim.

Uchinchi prinsip - integratsiya

Oila alohida,
maktab alohida,
mahalla alohida,
davlat alohida ishlamasligi kerak.

Bizning fikrimizcha, mazkur institutlar yagona maqsad asosida hamkorlik qilgandagina ma’naviy texnologiya yuqori samara beradi.

To‘rtinchi prinsip - raqamli moslashuvchanlik. XXI asrda ma’naviy texnologiya raqamli muhitdan tashqarida mavjud bo‘la olmaydi. Shuning uchun:

Telegram,
YouTube,
Instagram,
Facebook,
sun’iy intellekt,
elektron ta’lim platformalari ma’naviy rivojlanish vositasiga aylantirilishi lozim.

Beshinchi prinsip - baholash imkoniyati. Bizning fikrimizcha, har qanday texnologiya baholanishi mumkin bo‘lishi lozim. Agar uning samaradorligini o‘lchab bo‘lmasa, uni texnologiya deb atash qiyin. Shu sababli mazkur dissertatsiyada birinchi marta ma’naviy texnologiyalar samaradorligini baholash indikatorlarini ishlab chiqish taklif etiladi. Bular:

axborot madaniyati darajasi;
tanqidiy fikrlash darajasi;
raqamli madaniyat;
kitobxonlik faolligi;
fuqarolik mas’uliyati;
ijtimoiy faollik;
ma’naviy immunitet darajasi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi ijtimoiy-falsafiy konsepsiya ishlab chiqildi.

Insonning ma’naviy barqarorligi
↓
Tanqidiy fikrlash
↓
Axborot madaniyati
↓
Ma’naviy immunitet
↓
Axborot xavfsizligi
↓
Jamiyat barqarorligi

Bizning fikrimizcha, mazkur zanjir axborot xavfsizligini ta’minlashning universal ijtimoiy mexanizmini ifodalaydi. Bu model dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, yoshlarning axborot xavfsizligini ta’minlash faqatgina texnik vositalar yoki cheklovlar orqali hal etilmaydi, balki samarali ma’naviy texnologiyalarni joriy etishni taqozo qiladi. Ma’naviy texnologiyalarni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida yoshlarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, milliy g‘oya va qadriyatlarga asoslangan raqamli kontentni ko‘paytirish hamda oila, ta’lim muassasalari va jamoat tashkilotlarining o‘zaro integratsiyalashgan faoliyatini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘z navbatida yosh avlodni har qanday axborot xurujlaridan ishonchli himoya qilishning barqaror mexanizmini yaratadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O‘zbekiston" nashriyoti, 2021. – 464 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
3. Bekmurodov M. Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi va metodikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 280 b.
4. Jumayev N. Globallashuv va axborot-psixologik xavfsizlik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 212 b.
5. Shermuhamedova N. Epistemologiya (Bilim nazariyasi). – Toshkent: Universitet, 2019. – 324 b.
6. Otamurodov S. Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 232 b.
7. Quronov M. Milliy tarbiya asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018. – 208 b.
8. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz tiklanishi va uning omillari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 190 b.

9. Castells M. The Information Age: Economy, Society and Culture. – Oxford: Blackwell, 2010. – 450 p.

10. Toffler A. The Third Wave. – New York: Bantam Books, 1981. – 544 p.

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000